

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

P.S.Otaqulov

Geografik nomlarni o'rganishga ijtimoiy-ekologik yondashuv 92

B.M.Dehqonov

Andijon viloyati ekin yerlari monitoringi va uni baholash 97

X.Sh.Djo'rabyevo

An'anaviy suvdan foydalanish madaniyatining shakllanishida geografik omillarning o'rni 101

ILMIY AXBOROT**M.K.Usmonaliyeva**

Chor Rossiyasi hukmronligi davrida turkiston o'lkasida milliy matbuotning vujudga kelishi 105

O.N.Fozilova

Oybekning bolalarga atalgan hikoyalarda qahramon talqini 108

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik bilimlarni takomillashtirishning innovatsion - pedagogik modeli 113

N.B.Yuldasheva

Ingliz va o'zbek tillari matnlaridagi paremiyalarni tadqiq etishning muxim jihatlari 121

G.O.Abdujalilova

Ekspozitsiya va uning badiiy-estetik funksiyasi 124

X.Z.Umarova

Epistolary lines: the transformative power of letters in saul bellow's novel «Herzog» 127

D.Hakimova

Yosh voleybolchilarning maxsus jismoniy sifatlarini rivojlantirish 130

G.M.Alamov

Xalq o'yinlari va milliy bellashuvlarning o'quvchi-yoshlarni tarbiyalovchi muhim omil sifatidagi ahamiyati 135

A.K.Xudayberdiyev, M.J.Usmonova

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yagona to'g'ri yo'li-ta'lim sifatini oshirish 139

S.R.Xoliqov

Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'nавиати va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullari 143

M.A.Aliева

Неомифологизм в творчестве дмитрия сергеевича мережковского 147

A.Y.Ergashev

Yangi O'zbekistonda pedagogning maqomi: ijtimoiy-falsafiy tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari 152

Z.X.Oxunova

Yangi O'zbekistonda jinoyat va jazo tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-antropologik mazmuni 155

X.J.Isomiddinov

Yoshlar tafakkurini rivojlantirishning tarixiy-falsafiy jihatlari 158

R.D.Mustayev

Vatanparvarlik tushunchasining tarixiy-falsafiy mohiyati 161

B.I.Muxtoraliyev

Ilk hikoyalardagi ijodiy o'ziga xoslik 165

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari 171

M.M.Azizov

Methodology of optimizing sports and health programs through scandinavian walking 174

A.U.Xamidjanov

Yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo'y ko'rsatkichlarini model xususiyatlari o'rganish asosida yosh erkin kurashchilarni saralash va yo'naltirish metodikasi 181

G.T.Dadamirzayeva

Inson salomatligi va ruhiyatiga musiqaning ta'siri 191

ILK HIKOYALARIDAGI IJODIY O'ZIGA XOSLIK

ТВОРЧЕСКАЯ ИНДИВИДУАЛЬНОСТЬ В РАННИХ ИСТОРИЯХ

CREATIVE INDIVIDUALITY IN EARLY STORIES

Muxtoraliyev Bahromjon Ilyosjon o'g'li¹¹Farg'onan davlat universiteti doktoranti*Annotatsiya*

Maqolada Anvar Obidjon ijodining alohida o'rni hikoyalarida tasvirlangan voqeas o'z mohiyati va ahamiyati jihatidan epik turning roman, povest kabi janrlaridan farqlanmasa ham, biroq tasvirning ko'lami, syujet va kompozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayonning asosan bir shaxs tomonidan olib borilishi jihatlari yoritilgan. Shuningdek, "Hikoya, odatda, qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi hikoyaning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personojar soni kam bo'lishini taqozo etadi. Har qanday voqeas ham hikoya bob emasligi bayon etilgan.

Аннотация

В статье, хотя описанный в рассказах рассказ занимает особое место в творчестве Анвара Обиджона, по своей сути и значению не отличается от жанров эпического типа, таких как романы и новеллы, размахом изображения, относительной простотой. В статье подчеркивается сюжетность и композиция, а также то, что повествование в основном ведется одним человеком. Также «Повесть, как правило, охватывает одно (иногда несколько взаимосвязанных событий, произошедших за небольшой промежуток времени) из жизни героя. Кратковременность изображаемых событий требует небольшого размера рассказа, простоты сюжета и небольшого числа участников. Утверждается, что не каждое событие является главой истории.

Abstract

In the article, although the story described in the stories of the special place of Anvar Obidjon's work does not differ in its essence and importance from genres of the epic type, such as novels and short stories, the scope of the image, the relative simplicity of the plot and composition, and the fact that the narration is mainly carried out by one person are highlighted in the article. Also, "The story, as a rule, covers one (sometimes several interrelated events that took place over a short period of time) from the life of the hero. The short duration of the depicted events requires that the story is small in size, the plot is simple, and the number of participants is small. It is stated that not every event is a story chapter.

Kalit so'zlar: hikoya, janr, uslub, mahorat, portret, bolalar adabiyoti.

Ключевые слова: рассказ, жанр, стиль, мастерство, портрет, детская литература.

Key words: story, genre, style, skill, portrait, children's literature.

KIRISH

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi taraqqiyotida Anvar Obidjon ijodining alohida o'rni bor. U, ayniqsa, bolalar adabiyotida ushbu janri ham mavzu, ham obraz jihatidan yangiladi. Tasviriy ifoda va vositalardan samarali foydalanib betakror holat va kartina, chuqur falsafiy fikr ifodalashga erishdi. Ma'lumki, hikoya "Epik turga mansub kichik hajmli janr, shu janrda yozilgan asar (syujet va kompozitsiyasining nisbatan soddaligi, bayonning bir shaxs tomonidan olib borilishi bilan roman va qissadan farqlanadi; asosan nasriy ifodaga ega bo'ladi)"[1]. Shu bilan birga, "... u o'ziga xos imkoniyat va hayotiy qamrovga ega. Hikoya tasvirlangan voqeas o'z mohiyati va ahamiyati jihatidan epik turning roman, povest kabi janrlaridan farqlanmasa ham, biroq tasvirning ko'lami, syujet va kompozitsiyaning nisbatan soddaligi, bayonning asosan bir shaxs tomonidan olib borilishi jahitidan farqlanib turadi"[2]. Shuningdek, " Hikoya, odatda, qahramon hayotidan bitta (ba'zan bir-biriga uzviy bog'liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi. Tasvirlanayotgan voqealarning qisqa vaqt davomida kechishi hikoyaning hajman kichik, syujeti sodda, ishtirok etuvchi personojar soni kam bo'lishini taqozo etadi. Har qanday voqeas ham hikoya bob emas. Hikoya asosida yotgan voqeaneing yaxlit, tugal bo'lishi talab etiladi, buning uchun u o'zining boshlanishi va yakuniga ega bo'lishi... lozim. Yaxlit voqeani tasvirlash asnosida hikoyanavis yo shu voqeaneing, yo uning vositasida harakterning mohiyatini ochib beradi"[3]. Anvar Obidjon ham hikoyaning ana shunday ulkan imkoniyatlardan samarali foydalanadi. Uning hikoyalarida futbol to'pi so'zlaydi, o'z sarguzashtini bayon etadi ("Futbol to'pining sarguzashtlari"); pashsha o'zining mashaqqatli hayot yo'lini so'zlab beradi ("Pashshavoyning boshidan kechirganlari"); hashorot, parranda va hayvonlar o'z tabiatlari haqida ma'lumot beradilar ("Atrofimizdag'i qiziqchilar"). Bu esa hikoyaning nafaqat bolalarbop, balki kattalar uchun ham qiziqarli, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, uning "Futbol

to'pining sarguzashtlari" (1984) hikoyasi "Olti taymli hangoma" deb atalib, olti qismidan iborat. Hikoyaning birinchi qismi "Katakka ko'milgan tangalar" bo'lib, unda futbolga juda ishqiboz bo'lgan Akmal qora degan "istarasi issiq" bolaning magazindan sariq to'pni sotib olish voqeasi bilan boshlanadi. Ushbu voqealar ana shu sotib olingan sariq futbol to'pi tomonidan bayon etiladi. Yozuvchi voqelikni jonli, ta'sirchan bayonini yuzga chiqarish uchun roviy-qahramon – futbol to'pi nutqidan samarali foydalanadi. Futbol to'pi o'smir yoshdagagi bolalar singari fikrlaydi, so'zlaydi. Chunki bu yoshda bolalar, ayniqsa, futbol o'ynashga ishqiboz bo'lishadi. Futbol to'pining xotiralari tarzda berilgan ushbu hikoya shunday boshlanadi: "Magazindan meni Akmal qora degan istarasi issiq bola sotib oldi. U o'siq kipriklarini pirpiratib "anovi sarig'ini cho'zing-chi", deya do'konchiga meni ko'rsatganida, shunaqayam sevinib ketdimki, agar sizning ham dampingizni chiqarib, besh yarim oy peshtaqtga tashlab qo'yishsa, bir chetda jim turishga majburlik qanchalik qiyinligini tushunib yetgan bo'lardingiz"[4]. Nihoyat Akmal qora to'pni uyiga olib kelgach, onasining o'g'irlikda aybloviga duchor bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, u har kuni mактабда ovqatlanish uchun beriladigan puldan besh tiyndan yig'ib yurib ushbu futbol to'pni sotib oлган. Akmal to'plagan pullarini tovuq katagiga ko'mib yurishi, bir kuni to'pni sotib olish uchun pulni olgani borganida tangalar ustiga chipor tovug'ining tuxum to'plab o'tirganini ko'rishi davrning dolzarb masalasiga munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa Anvar Obidjon uslubiga xos jihatni – bolalarga atalgan asarlarda ham kattalar uchun muhim bo'lgan mavzuni yorita olish iqtidorini ko'rsatadi. Shu bois ham yozuvchining asarlari kattalar uchun ham, bolalar uchun ham birdek jozibalidir: "Xazina" mo'ljaldagiga yetib qolganida, uni kovlab olish uchun katakka kirib qarasa, tangalari ko'milgan joyga chipor tovug'i tuxum to'plab, ustiga so'ppayib o'tirib oлganmish. Surbetlik bundan ortiq bo'ladimi? Bundaqangi molparas tovuq o'z vaqtida tarbiyalanmasa, oqibati chatoq tugaydi. Bugun tanganing ustida jo'ja ochkisi kelibdimi, yanagi safar tuxumni to'ppa-to'g'ri xonodon mulki saqlanadigan sandiqning qopqog'iga qo'yadi. Keying gal qarabsizki, davlat bankasidagi po'lat jovonga joy qilib bermasang, tuxum bosmayman, deb turib oladi. Faqat o'z huzurini o'ylaydigan tovuqlar yoki tovuqfe'llar ko'p bo'lgan yerda esa hech qachon futbol taraqqiy etmaydi. Futbolchilar ham o'sha xudbinlardan o'rnak oladi, biron komandaga o'tib o'ynashdan oldin o'ziga qanday naf tegishini so'rab-surishtirishga tushadi, fidoyilik yo'qoladi"[5,98].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Professor Y. Solijonov Anvar Obidjon ijodining yana bir o'ziga xos individual jihatni to'g'risida quydagilarni yozadi: "Mening nazarimda Anvar Obidjonning ijodiy qiyofasida har doim izlanish istagi g'oyatda kuchli ekanligi ko'zga tashlanadi. U, avvalo, adabiy tilimizning butun tarovatini namoyon qilish, uni bezab turgan xalq tiliga oid so'zlarning teran ildizlarini topishga intiladi. Ayniqsa, iste'moldan chiqib ketgan shevaga oid so'zlarni ham joy-joyida qo'llab, ohangning boshqacha jaranglashi va mazmunni teranlashtirishga xizmat qildiradiki, bu faqat bolajonlarni emas, balki ularning ota-onalarini ham quvontiradi, tilimiz xazinasini chuqurroq o'rganishga o'rgatadi. Agar sinchiklab qaralsa, shoir she'rlerida istifoda etilgan so'zlarning aksariyati o'zbek tilining 5 jiddlik izohli lug'atida ham uchramaydi. Aslida, haqiqiy san'atkori o'z ona tilining xazinasini yangi so'z va iborlar bilan boyitishga mas'uldir"[6,215]. Darhaqiqat, yozuvchi "Futbol to'pining sarguzashtlari" hikoyasida ham tilimizning boyliklaridan: o'xshatish, qiyos, metaforik so'z va iboralar, maqol va matallardan samarali foydalanadi. Barcha yoshdagilar uchun muhim ahloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega falsafiy fikrlarni asar qatiga singdirib yuboradi.

Akmal qoraning dadasi tomonidan tepilgan to'p devorlar osha yuk mashinalari shtob bilan o'tayotgan katta ko'chaga uchib o'tadi. Ushbu xolat to'p tomonidan shunday bayon etiladi: "Nahotki, endigma shirin hayotim boshlanganda g'ildiraklar tagida nobud bo'lsam? To'g'ri, ichiga havo to'ldirilgan g'ildiraklar aslida uzoq qarindoshim. Ammo ular mendan ancha baland, balandlar esa payti kelganda, qarindosh tugul o'z ukasiniyam tanimay qolishi mumkin"[5]. "Kosa tagida nim kosa" tarzda berilgan ushbu gapda mansabidan havolanib, hatto yaqinlarini ham tanimay qolgan amalparast, xudbin kimsalar ham tanqid ostiga olingan. Mashinalar ostiga tushib yorilish havfida turgan to'pining ushbu fikri ham o'ziga xos falsafiy ma'noga ega: "Eh, kelib-kelib, o'zingnikilar seni tepib tursa, juda-juda alam qiladi-da. Menimcha, dunyoda bundan dahshatliroq fojia bo'lmasa kerak"[5]. Ushbu o'rinda O. Abobakirovaning "Anvar Obidjon hikoyalaridagi obraz va personajlar voqelikka o'zlarining yashash tarzidan kelib chiqib baho beradilar. Ayniqsa, ular o'z nutqlari bilan alohidalik, individualliklarini namoyish etadilar"[7], degan so'zları xarakterlidir.

Qum ortilgan mashinaga tushgan futbol to'pi Qo'zi qassob uyiga yetib boradi. Qo'zi qassob esa o'g'li Qo'chqoraliga o'ynash uchun to'p olib kelganini so'zlaganida, unga futbol to'pining munosabati shunday ifodalananadi: "So'laqmonday kishining g'irt yolg'on gapirayotganini ko'rib, haddan

ILMIY AXBOROT

tashqari uyalib ketdim. Mani sotib olguncha bechora Akmal qora qancha qiyinchiliklar ko'rganini bu tayyoxro'r bilmaydi-da"[5,91-92].

Qo'chqorali futbolga umuman qiziqmaydi, u mexaynik bo'lmoqchi. Uning otasi esa o'g'lini qassob qilmoqchi. Qo'zi qassob to'pni Emin etikdo'zga mahsiga yamoq soldirish uchun beradi. Futbol to'pi bu holatni shunday tasvirlaydi: "Emin etikdo'z kalishnusxa burnining ustiga ko'zoynak qo'ndirib, menga diqqat bilan tikildi. Keyin tirnog'ida etimni tatalab ko'ra boshladi. O'zingiz bilasizki, hayotim mazmuni har qanday tepkiga o'z vaqtida moslashib olish, turli maqsaddagi qitiqlashlarga chidash esa mening vazifamga kirmaydi. Shunga qaramasdan, bu safar qahramonlarcha toqat qilib turdim"[5,93].

Tanbal Qo'chqorali qiyofasi otasining to'pni tepishga undoviga javoban "Maktabimizga kelgan bir do'xtir ovqat yegandan keyin yugurish apasniy" deb qilgan javobida ko'rindi.

Emin etikdo'z tomonidan endi bigiz bilan teshilish arafasida Farhod degan bolaning do'konga kirib kelishi futbol to'pining teshilishidan saqlab qoladi. Yozuvchi har bir kasb egasini o'z tilidan, o'z falsafasi orqali gavdalantiradi. Masalan, Qo'ziqassob: " – Mexaynik bu – o'lgunicha mexaynik. Pidbo'lchilar o'ttizga bormay tamom bo'ladi. O'ttiz yoshda ishsiz qolganingdan keyin qassoblik qilmay qayocco borarding?" desa, Emin etikdo'z: "Biz etikdo'zlar hatto jahon birinchiligidagi ishlataladigan to'plarga ham charm deb qaraymiz. Baski charm ekan, uni maxsiga yamoq qilaman" deydi.

Farhod futbol to'pni tepamahallaliklar bilan quyimahallaliklar o'rtasida stadionda bo'ladijan musobaqaga olib chiqadi. Darvozabon bola qiyofasini rivoyachi-qahramon shunday tasvirlaydi: "Darvozaboning sumbatini ko'rib xo-xohlagizing keladi. Havo jizzilatib turganiga qaramay, boshida qulog'i tushirilgan telpak, egnida kattakon po'stin, paxtali shim ustidan kiyilgan qo'pol kirza etikning qo'nji tizzasidan bir qarich balandda. Shu kepatada uzunasiga yonboshlab yotsayam, darvozaga gol urish amrimahol bo'p qoladi"[5,97].

Hikoya voqeligiga terakday darvozabon Voqisher bilan bog'liq uch kun avvalgi mahalladagi to'uda bo'lib o'tgan voqeani retrospeksiya orqali kiritilishi syujetdagi rang-barang holatni yuzaga kelishini ta'minlagan: "Bundan uch kun avval mahalladagi bir to'uda chiroq o'chib qoldi. Bir zumdan so'ng yongach, bundoq qarashsa, kelin-kuyovning oldidagi stol ustida daydi ko'ppak bermalol varaqisomsa yeb o'tiribdi. Oqsoqol: "Buni tirigicha ushlab beringlar menga!" deb na'ra tortishi bilanoq ko'cha darvoza taqqa-taq berkitilib, odamlar tashqarini tezda qurshab olishdi. Devor tagidagi kandikni to'sib turish Voqisherning zimmasiga tushdi. It sho'rlik sirkdagisi otga o'xshab doira bo'y lab chopa ketdi. Faqat farqi shu ediki, sirkdagisi ot olqish olsa, bunga ketma-ket tepki yog'ilib turdi. Itning ahvoli qanchalik tang bo'lmasin, bu yerga qaysi yo'ldan kirib kelganini unutmagandi, qulay fursat poylab turib o'zini jon holatda kandikka urdi. Voqisher uning bir siqim junini yulib qolishga zo'rg'a ulgirdi. Muttaham itni bearmon tepkilash imkonidan mahrum bo'lgan o'spirinlar xumorbostiga endi Voqisherning changini qoqa ketishdi"[5,97].

Yozuvchi o'xshatishlar orqali qahramonlarning lahzalik holat va qiyofalarini mohirlik bilan aks ettiradi. Bu borada G'afur G'ulomning o'xshatishlar vositasida qahramonlar tasvirini "Shum bola" qissani yaratishdagi mahoratidan ta'sirlanganligi ko'zga tashlanadi. Anvar Obidjon mahorati shundaki, ulug' yozuvchi an'anasisiga ijodiy yondashgani holda o'ziga xos tasvir yaratadi. Masalan, Farhodning musobaqadan oldin tepamahalla bolalariga qarata o'yin taqdiri darvozabonga bog'liqligi to'g'risidagi so'zlardan ruhlangan Voqisher holati: "Bu gapdan Voqisherning hiyla dimog'i ko'tarildi. Indamasdan borib darvozadan joy olgan chog'da, maqtanchoq Napalyonning besonaqay yog'och ramkadagi portretiga o'xshab qoldi [5,98]" tarzda ifodalanadi.

O'yin boshlanishidan oldin tepamahallaliklarga bir o'yinchi yetmay qolgach yo'lakda Olaparini ergashtirib kelayotgan Botir sariq degan bola bilan itiga oltita konfet, o'ziga o'nta yong'oq berish sharti bilan "shartnoma" tuzadilar. Yana Botir sariq faqat hujumda o'ynashini shart qilib qo'yadi. Musobaqada tepamahallaliklar g'olib keladilar. O'yinda Botir sariqning Olapari raqib hujumchilarini ayamay talab tugani mahalla bolalariga qo'l keladi. O'yin so'ngida itga konfetlar yog'ilib ketgan bo'lsada, yong'oq pishig'i hali boshlanmagani uchun Botirga va'da qilingan shart bajarilmay qoladi.

Farhod lagerga jo'nash oldidan futbol to'pni qo'shni hovlida yashovchi Dildora degan qizaloqqa tashlab ketadi. Shunda futbol to'pi Farhod bilan Akmal qorani qiyoslaydi. Do'stlik, sadoqat, vafo haqida fikr yuritadi: "Senga jon dildan mehr qo'ygan dastlabki o'tog'ingdan biron tasodif tufayli ayrilib qolsang, keyinchalik yo'l-yo'lakay uchraydiganlar orasidan sodiq do'st topish g'oyatda mushkulligini shu bugun anglab yetdim. O'zingiz aytинг-chi, agar Farhodning ornida Akmal qora bo'lganida qandaydir olmayu handalaklarni deb mendek oshnasini tashlab ketarmidi? Yo'q! Meni sotib

olish uchun o'z rizqini qiyib yurishga bardoshi yetgan qadrdonim bu safar ham osma xaltadagi bodringlardan shartta-shartta voz kechgan bo'lardi[5,100]”.

Furbol to'pi tasodifiy shamol tufayli dumalab ariqqa tushib ketadi. Asarda qassobxona biqinidagi so'ri ostidan oqib o'tgan ariqdan futbol to'pini tutib olmoqchi bo'lgan Qo'chqorali va Qo'zi qassob holati tasviriy ifoda va vositalardan mahorat bilan foydalanaligan holda shunday ifodalanadi: “ – Qani, tur, Qo'chroqali! – gerdaygancha o'g'liga buyruq qildi Qo'ziqassob. – Shuni qo'ldan chiqarsang, ikki kun ovqatan tortib qo'yaman. Ustixonni sudyaning hushtagiga o'xshab og'ziga tiqib turgan Qo'chqorali nonushtaga noiloj barham berib, erinibgina so'ridan tushdi. Ariq bo'yidagi tolning tomiridan ushlab, yaqinlashib qolganida pishillagancha menga qo'l cho'zdi. To'satdan tomir uzilib ketdi-yu, u dodlab ariqqa yiqildi. Noshud o'g'lini qutqarish uchun Qo'ziqassob ham zavoddan chiqqan kemadek bo'lib o'zini ariqqa tashlagan chog'da Emin etikdo'z qah-qah otib kulib yubordi”[5,101-102].

Yozuvchi tasvirdagi kulgili holatlarni aks ettirishda ana shu tariqa o'xshatishlardan mohirlik bilan foydalanaladi. Nihoyat, futbol to'pi o'zining sadoqatli do'sti Akmal qorani uchratadi. Hikoya voqealari do'stlik, sadoqat, vafo haqidagi fikr bilan shunday yakunlanadi: “To'g'ri, Akmal qora ham meni tepadi, ammo gap bunda emas. Birinchidan, biz to'plar azaldan tepkilanish uchun yaralganmiz. Qolaversa, kimdir seni yurak-yurakdan yaxshi ko'rishini seni hech qachon, hech narsaga sotmasligini doimo his qilib tursang uning tepkisi ham ko'nglingga og'ir botmas ekan”[5,102-103].

NATIJA VA MUHOKAMA

Akademik N.Karimovning “Usmon Nosir ijodi uch irmoqning tutashuvidan hosil bo'lgan daryodir. Bu irmoqlarning biri – she'riyat, ikkinchisi – tarjima, uchinchisi esa dramaturgiyadir”[8,50] degan so'zlarini Anvar Obidjonga ham qaysidir ma'noda qo'llash mumkin. Anvar Obidjon ijodini ham ana shunday daryoga qiyoslasak, unga quylgan birinchi irmoq – she'riyat, ikkinchi irmoq – nasr, uchinchi irmoq – dramaturgiyadir. Anvar Obidjon nasr qolgan ikkki irmoq tajribalarini ham o'ziga singdirgani bilan harakterlidir.

“Pashshavoyning boshidan kechirganlari” (1978) hikoyasini ba'zi “yangicha” romanlarga kinoya tarzda muallif “mitti roman - fofja” deb atagan. Asar roman shaklida shartli ikki qism (har biri to'rt bobdan) va xotimadan iborat.

Hikoya voqealari “Sharq” oshxonasi shiftidagi kandikda ota-onasi va akasi bilan yashaydigan Pashshavoy tomonidan so'zlab beriladi. Yozuvchining mahorati shundaki, oilani tanazzulga boshlaydigan ichkilikbozlik, mehrsizlik, xudbinlik, hiyonatkorlik kabi illatlarni pashshalar tasviri orqali fosh etadi. Pashshavoy ham barcha bolalar singari samimi, rostgo'y, ota-onasiga va yaqinlariga mehribon, haqiqatparast. Pashshavoy bolalar kabi fikrlaydi va so'zlaydi. Bu esa voqelikning hayotiy, ta'sirchan ifodasini ta'minlagan.

Pashshavoy “Sharq” oshxonasiga kelib-ketuvchi odamlar to'g'risida shunday fikrlaydi: “Odamlarning fe'l-atvoriga hech tushunib bo'lmaydi. Ular ochqagan paytlarida oshxonaga mung'ayib kirib kelishadi-yu, qorinlari to'ygach birdan gerdayishib ichkilikbozlik qila boshlashadi. Bir pastdan keyin qarabsizki, biri chiyabo'ridek uvullasa, boshqasi qo'tosdek bo'kirib turibdi. Ayamning aytishicha pashshalar orasidan chiqqan piyanistalar ichishni ana shu odamlardan o'rganishar ekan”[5,104].

Pashshavoyning aytishicha, araqxo'r pashshalarning biri uning dadasi bo'lib, u har kuni kayfi taroq holda ayasi bechorani do'pposlagani-do'pposlagan. Bir-ikki marta akasi dadasi bilan shu masalada aytishib ham qolganlar. Kunlarning birida kunbotarga yaqin qanchalik janjalkash bo'lsa ham ular uchun aziz bo'lgan otalari qadahga quylgan araqqa cho'kib ketib, olamdan o'tadi. Ayasining aytishicha, rahmatli keying paytda haddidan oshib, avvallari aroq yuqi idishlarni yalab yurgan bo'lsa, bora-bora qadahlarga odamlardan oldinroq tumshug' suqadigan bo'lgan. Pashshavoyning ayasi ushbu gaplarni so'zlarkan, sodda pashshalarni yo'ldan ozdirayotgan piaynista odamlarni bo'ralab qarg'ay boshlaydi.

Pashshavoyning odamlardan yiroqqa ko'chib ketish taklifiga uning akasi rad javobini beradi. Akasi oshxona binosi o'zlariniki ekanligi, odamlar u yerga surbetlik bilan kirib kelganini aytib “qismatda borini ko'rish”larini uqtiradi. Pashshavoyning qismat haqidagi so'roviga akasi o'qrayib turib “Enang!” deya javob qiladi. Pashshavoy “Demak akamning boyagi gapini “Enamizni ko'ramiz”, deb tushinish kerak bo'ladi”[5,105] deya xulosa chiqaradi.

Pashshavoyning dadasi vafotidan keyin ko'p o'tmay uning ayasiga nonvoxonadagi tandir yonida yashaydigan qari Pashshadan sovchi keladi. Uning kampirini bir yallachi Qurbaqa kap otib qo'yan ekan. Pashshavoyning ayasi sovchilarga zarda bilan uyatsiz cholga tul qolgan biron ta'qib shaxsiyatlari topinglar deya javob qiladi.

ILMIY AXBOROT

Shu orada Pashshavoy akasining o'rtoq'i Layzon gandiraklagancha kirib kelib jon berarkan, akasi va uning o'rtoqlari oq kiyimli odamlar tomonidan sepilgan sassiq doridan o'lganligi xabarini yetkazadi.

Pashshavoy ayasi bilan endi oshxonaga bormay, balki ityaloqda qorin to'ydira boshlaydilar. Bu holni Pashshavoy shunday izohlaydi: "Keksa pashshalar aytgandek, hali hech kim yuvilgan ityaloqni ko'rish sharafiga tuyassar bo'limgan. Shu tufayli hech bir joydan ovqat topilmagan paytda, uzoq o'tirmay yo ityaloqni, yo bo'lmasa bet-qo'li shatmoq bolani axtarib qolamiz"[5,107]. Ammo ityaloqda ovqatlanish vaqtida ustlaridan quyib yuborilgan yuvindi ostida qolgan pashshavoyning ayasi Olaparga yem bo'lib ketadi. Yetim qolgan Pashshavoy kechinmalari hikoyada shunday aks etadi: "Uyga qaytib kelishim bilan yuragimni negadir vahm bosdi. Huvillagan xonada tun bo'yi mijja qoqmay o'tirib chiqdim. Shu damda mendan dunyodagi eng dahshatli narsa nima, deb so'rashsa, "yolg'izlik", deya javob qilgan bo'lardim"[5,107].

Yetim qolgan Pashshavoyni pochchasi va opasi o'z xonadonlariga olib ketadilar. Ular bir badavlat odamning dang'illama uyidagi qimmatbaho javon ortida yashashadi. Pashshavoy tomonidan xonodon tasviri shunday aks ettiriladi: "Xonaga kirib, og'zim lang ochilib qoldi. Devorning eshik va derazadan boshqa hamma joyiga gilamlar qoqilgan, shiftdagи naqshlar ko'zni qamashtiradi, idish-tovoqdan tortib, qoshiq-cho'michgacha – bari yalt-yult qiladi. Borgan kunim katta ziyofatning ustidan chiqib qolibman. O'sha badavlat odam kenja o'g'lining tug'ilgan kunini nishonlash bahonasida o'z ulfatlarini yig'ib katta isrofgarchiliklar qilayotgan ekan. Dasturxonda oymomodan boshqa hamma narsa bor deng"[5,108]. Shu kuni kayfi oshib qolgan mast odamlardan birining qiyqirib stolga mushtashi tufayli Pashshavoy pochchasing murabbo yalayotgan qari buvisi idishning ag'nab ketishi oqibatida cho'kib o'ladi. Bu esa pochchaning "shumqadam" qayin ukaga munosabatining sovuqlashishiga olib keladi. Shu o'rinda O'zbekiston Qahramoni I.G'afurovning "Ey, Yorug' dunyo..." nomli sarguzasht qissasi haqidagi "Bu – yosh adibning birinchi yirikroq kitobi. Bungacha u o'quvchilarga o'zining she'rlari va jajji hikoyachalari bilan tanilgan edi. Anvar Obidjonning she'rlari ham, Kichkina hikoyachalari ham o'tkir fikrlarga, topilmalarga, kutilmagan obrazlarga, jozibali va nurli kulgiga boyligi bilan ko'pchilikning e'tiborini tortgan, adabiyotimizga yorug' fikrli bir ijodkor kirib kelayotganidan darak bergandi"[9,152] degan fikrlari xarakterlidir. Yorug' fikrli ijodkor ijodi mahsuli bo'lgan ushbu hikoyadagi voqealar ham betakror topilmalari, ifoda usuli bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi. Bolalarda yuksak axloq, odobning shakllanishiga xizmat qiladi.

Yozuvchi fikricha, bizning atrofimizni qurshab turgan narsalar: hasharotu parrandalar, nabotu hayvonotning keraksizi yo'q. Odamzod o'zi uchun zararli deb bilgan pashshalarning ham bu olamda o'rni bor. Pashshavoyning og'ir sarguzashti, fojiali o'limi o'quvchida achinish va hamdardlik uyg'otadi. Chunki uni yozuvchi odamlar kabi fikrlatadi, so'zlatadi. To'g'rirog'i, uni odam qiyofasiga kiritadi.

Pashshavoy kechmishidagi fojia opasining yelim doriga yopishib qolishi bilan boshlanadi. Opasiga yordamga oshiqqan Pashshavoyni pochchasi kuch bilan qanotlari orasiga qisib ushlab qoladi. Opasiga rahmi kelib, ko'zlarida yosh tirqiragan Pashshavoya pochchasi bosiqlik bilan voqeani tushuntiradi. Opasiga yordam berishi mumkinligini, lekin unda sevimli pochchaside ham ajrab qolishini tushuntiradi. Bu voqeadan Pashshavoyning xulosasi shunday: "Sevimli emish! Xullas, kunim shu qo'rqoqqa qoldi"[5,109].

Deraza tokchasisidagi telefonga qo'nib olib, och-nahor holda Olaparga yem bo'lgan rahmatli ayasini eslab yig'layotgan Pashshavoya pochchasi tanbeh berayotgan paytda xonaga bir kampir ivirsib kiradi. Kampir qo'lidagi charm chilpildoq bilan pochchani kitobga paqqos chaplab qo'yadi. Pochchasing o'limidan Pashshavoy shunday xulosaga keladi: "Shunda o'ylab qoldim – pochchamku, baribir o'lar ekan, o'shanda opamga yordam berib, u bilan birga yelimga qorishib ketaversa bo'lasmidi? To'g'ri, bir necha kun oldinroq o'lardi, lekin o'zidan yaxshi nom qoldirardi. Uning bu ishini boshqa pashshalar uzoq vaqtgacha bir-birlariga gapirib yurishmasmidi?"[110]. Shu tariqa yozuvchi bolalarni jasorat, oqibatlilik, sadoqat, mehr, vafo kabi fazilatlar bilan tarbiyalashni maqsad qiladi.

Pashshavoy hayot haqida shunday diydi: "Ko'p joylarda bo'ldim. Ahvolingni so'rab, darddosh bo'ladiganlardan ko'ra, seni nohaq do'pposlab yoki beayov masxaralab o'z ko'nglini xushlaydiganlar toifasi ko'proq ekan"[5,110].

Shu asnoda u o'zidan picha yoshroq, rahmdil, oliyanob Pashshaoy bilan tanishib qoladi. Pashshaoyning taklifi bilan qossaloxnaga go'shtxo'rlikka kiradilar. Shunda Pashshaoy bir Qovog'arining changaliga tushadi. Bu voqeadan qattiq izardrobga tushgan Pashshavoy shunday xulosaga keladi: "Donolar aytganidek, bu dunyoda istagancha dushman orttirish mumkin-u, ammo

do'st toppish juda mushkul. Men zo'rg'a bitta do'st topganimda, shu zahotyoq undan ayrılib qoldim. Eh!... Shu payt jangari akamning qachonlardir aytgan gapi yodimga tushdi "qismatda borini ko'ramiz", degan edi u. Qiziql"[5,111].

Hikoyaning xotimasida yozuvchi ushbu "roman"ni bir baxtsiz pashshaning cho'ntagidan topilgan yondaftarchadagi estaliklar asosida yozganini aytarkan, ushbu fojiali xabarni ham qistirib o'tadi: "Musibat haqida gapirish qanchalik og'ir bo'lmasin, axborotingiz uchun yana bir narsani aytib qo'yishim shart: o'sha darbadar Pashsha 1978-yilning sakkizinchı avgustida men tanovul qilib turgan qaynoq sho'rvaga tushib fojiali halok bo'ldi..."[5,112].

Yozuvchi mumtoz adabiyotdagi she'riy san'atlardan bo'lgan intoqdan samarali foydalanadi. Ma'lumki, "Intoq... mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, badiiy asarda hayvonlar, qushlar va jonsiz narsalarini xuddi insonlar kabi so'zlatish. Intoq shoirga o'zining kechinmalari, borliqqa munosabati, hayot haqidagi falsafiy mushohadalarini bilvositda ifodalash imkonini beradi"[10,122].

XULOSA

Anvar Obidjon yuqoridagi hikoyalarida qadimgi asotir va afsonalar, ertak va dostonlar an'analaridan ta'sirlanib, o'ziga xos ifoda usulini individuallikni yuzaga keltiradi. Ilk hikoyalaridayoq yozuvchi qator ijodiy izlanishlar olib borib, betakror obrazlar, hayotiy kartina, chuqur falsafiy fikrlar singdirilgan voqelikni yuzaga keltiradi. Asarning hayotiy, jonli, ta'sirchan va jozibador bo'lishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildlik. Ikkinci jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 385. (1036 bet)
2. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Тошкент: Ўқитувчи, 1979. -Б.250. (366 бет)
3. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. - Ташкент: Akademnashr, 2010. - Б. 393-394.(400 бет)
 4. Анвар Обиджон. Олтин юракли автобола. - Тошкент: Ёш гвардия, 1988. - Б.87. (144 бет)
 5. Анвар Обиджон. Олтин юракли автобола. – Б. 89.
 6. Соликинов И. Анвар Обиджон поэтик олами. Монография. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. - Б.58. (215 бет)
 7. Абобакирова О. Ўзбек болалар ҳикоячилигида бадиий услуб ва қаҳрамон масаласи (Н.Фозилов,Л.Махмудов, А.Обиджон ижоди мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Фарғона,2021. – Б.19. (55 бет)
 8. Каримов Н. XX аср адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси: Филол. фан. д-ри... илмий маъруза тарзда ёзилган дисс. авторефер. – Тошкент,1993. (50 бет)
 - 9.Faafurov I. Сўз тўлқинлари // Болалар оламининг шайдоси. "Ўзбекистон халқ шоири Анвар Обиджон таваллудига 70 йил" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент, 2017. (152 бет)
 10. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. - Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б.122.